

BILIMLAR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA TA'LIM SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: xulugbek1984@gmail.com

ORCID: 0000-0002-3589-373X

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga ta'sir etuvchi bilimlar iqtisodiyoti tizimi o'rganib chiqilgan. Mamlakatimizda bilimlar iqtisodiyotini shakllanishida respublikamizdagi shart-sharoitlar tahlil qilinib, xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, bilimlar iqtisodiyoti, tendensiya, texnologiya, mintaqa, mehnat bozorlari, zamonaviy bilim.

Аннотация

В данной статье исследуется система экономики знаний, влияющая на устойчивое экономическое развитие нашей страны. Проанализированы условия формирования экономики знаний в нашей стране и сделаны выводы.

Ключевые слова: Образование, экономика знаний, тренд, технологии, регион, рынки труда, современные знания.

Abstract

In this article, the knowledge economy system affecting the sustainable economic development of our country is studied. The conditions in the formation of the knowledge economy in our country were analyzed and conclusions were drawn.

Keywords: Education, knowledge economy, trend, technology, region, labor markets, modern knowledge.

KIRISH

Jahon miqyosida ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun fan, ta'lim va biznes o'rtasidagi samarali integratsiya zarur. Bu omillar mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish va innovatsiyalarni joriy etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bilim va inson kapitali zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Inson kapitali va bilim iqtisodiyoti global raqobatbardoshlikning asosiy drayverlaridan biriga aylangan. Jahon banki, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan inson kapitali indekslarining tahlili ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish darajasi ko'p jihatdan ta'lim sifatining yuqori bo'lishiga bog'liq. Ta'lim tizimi kuchli mamlakatlarda yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish osonlashadi, bu esa barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Ta'lim sektori nafaqat ma'lumot tarqatuvchi tizim, balki ilm-fan va biznes uchun innovatsion mahsulotlar generatori sifatida ham faoliyat yuritadi. Xususiyl sektorning ta'lim sohasidagi ishtiroki o'sishi bilan birga universitet va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi texnologiyalar va tadqiqotlarga yo'naltirilgan bilim manbasiga aylanmoqda.

Iqtisodiyotda bilim va ta'limning integratsiyalashuvi yangi mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlar yaratilishiga olib keladi. Ilg'or mamlakatlar (masalan, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya) ta'lim, fan va biznesni yagona ekotizim sifatida shakllantirgan holda, uzluksiz rivojlanish va innovatsiya jarayonlarini jadallashtirmoqda.

Ta'lim, fan va biznes o'rtasidagi o'zaro integratsiya globallashtirish sharoitida mamlakatlar barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan innovatsion rivojlanish modellari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. O'z navbatida, ta'lim tizimining bozor talablariga moslashuvchanligi va biznes bilan hamkorligi mamlakatlarning innovatsion salohiyatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bilimlar iqtisodiyotining asl ko'rinishi esa 20 asrning 40-60 yillarida institutsional iqtisodiy oqimini vujudga kelishi bilan boshlagan. Bu yo'nalishda qatnashchilarni alohida ko'rib chiqsak bo'ladi. Dj.K.Gelbreyt "Yangi industrial jamiyat" va D.Bell "Industrial jamiyatdan keyingi jamiyat" asarlarida postindustrial jamiyatning dastlabki ko'rinishlariga ta'rif berganlar. Jumladan, J.K.Gelbreyt fikri bo'yicha, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti xatti-harakati murakkab texnikalarni ishlab chiqaruvchi yirik korporatsiyalar bilan aniqlanadi. Uning fikricha zamonaviy korporatsiyalarda real iqtisodiy hokimiyat kapital egalariga emas va hatto menejerlarga ham emas, balki ilm, fan va texnologik bilim egalariga tegishli bo'ladi. Texnostruktura vakillari ishlab chiqarish to'g'risida o'ziga xos professional bilimga va qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotlarga ega. Albatta, rasmiy jihatdan muhim qarorlar, qoidaga ko'ra, kompaniyaning yetakchi menejerlari – direktor va uning o'rinbosarlarining alohida huquqi hisoblanadi. Lekin barcha qarorlarni qabul qilish deyarli 100 foiz axborotlarga bog'liq. Axborotlar esa texnostruktura "nazorati" ostida bo'ladi. [2]

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda qiyosiy, tahlil qilish va tanlama kuzatish, statistik hamda ko'p omilli ekonometrik tahlil usullari, modellashtirish jarayonlarda iqtisodiy-matematik, noaniq to'plam nazariyasi, prognozlash va boshqa usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bilimlardan foydalanish va tarqatishning ahamiyati, jamiyatda ta'limning katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlarga ko'ra, malakali kadrlar, ishbilarmonlik iste'dodlari, mehnat bozorlarida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yangi g'oyalarni yaratishga qodir insonlar uchun qizg'in "jang" ketmoqda. Bundan tashqari, biznes uchun ham, xodimlar uchun ham kommunikativlik, moslashuvchanlik va o'zgarishlarga moslashish, umr bo'yi o'rganish, kasbiy ko'nikmalarni doimiy ravishda yangilash kabi sa'y-harakatlarning xususiyatlari birinchi darajali ahamiyatga ega.

Inson kapitalini makroiqtisodiy darajada o'rganish undan foydalanishni umumlashtirilgan holda ko'rib chiqishda daromadning oshishi ta'siri kuzatiladi. Agar korxonada bunday daromad bo'lmasa ham, makroiqtisodiy darajada u mavjud

va iqtisodiy tizimda band bo‘lganlarning barchasining mehnat unumdorligiga ta’sir qiladi. Bundan kelib chiqadiki, “inson kapitaliga sarmoya kirita olmaydigan iqtisodlar, agar ular bir xil texnologiyadan foydalanish imkoniga ega bo‘lsalar ham, boshqalarda kuzatilgan o‘shish sur‘atlariga erisha olmaydilar, chunki ularda bunday texnologiyalardan samarali foydalanish uchun bilim yetishmaydi”[3].

Agar intellektual resurslar bo‘lmasa yoki samarasiz foydalanilsa (ma’lum bir chegara darajasidan past), u holda iqtisodiyot tanazzulga yuz tutadi, uning rivojlanishi faqat ekstensiv yoki turg‘un bo‘ladi. Ma’lumki, o‘tgan davrlarda dunyoni pragmatik idrok etgan “texnokratik” mutaxassis qiyofasi shakllangan edi. O‘sha tarixiy bosqichda u ma’lum darajada oqlandi. Biroq, texnokratik yondashuv insonparvarlik va ekologik inqirozga, insoniyatning mavjudligiga tahdid solishiga olib keldi. Uni yengish uchun nafaqat inson salohiyati, balki yangi tipdagi shaxs – madaniyatli, yuksak ma’lumotli, har qanday til va madaniy muhitda uni munosib namoyon eta oladigan o‘z mamlakatining fuqarosini, ijobiy imijini shakllantirishga faol hissa qo‘shish, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishni ta’minlash haqida ham o‘ylash zarur. Hozirgi vaqtda jamiyat va iqtisodiyotning bilimga asoslangan taraqqiyotning yangi bosqichiga o‘tishi uchun real sharoitlar shakllanmoqda. Mamlakatning davlat siyosati shaxsiy bilimlarni o‘zlashtirishni faollashtirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda yuqori rivojlangan mamlakatlar qatori ishlab chiqarishning asosiy omili bo‘lmish ta’limni rivojlantirish, sifatli kadrlar tayyorlash muammosini hal etish borasida keng islohotlar amalga oshirilib kelinadi. Shu sababli, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda 40% dan 60% gacha bo‘lgan xodimlar oliy ma’lumotga ega bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasida bu ko‘rsatkich 38,7% va qishloq joylarda — 27,2% ni tashkil etishi ajablanarli emas. Xususan, Yaponiya hukumati “Har bir yapon ijodkor” degan milliy g‘oyani ilgari surgan. Natijada yaponiyaliklar ilmiy darajaga ega bo‘lgan mutaxassislarning dunyoning istalgan davlatiga nisbatan eng katta ulushiga ega bo‘lib umumiy sonining 68 foizini tashkil etadi[4].

Ta’lim tizimining sifati va mamlakatlarning raqobatbardoshlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlash uchun CEOWORLD jurnali tadqiqotchilari ikki asosiy toifa: 1) sifat va 2) imkoniyat bo‘yicha 93 ta davlatni tahlil qildi va taqqosladi. 2024-yilgi reytingga ko‘ra, Buyuk Britaniya (sifat indeksi-78,2; imkoniyat-69,79) dunyodagi eng rivojlangan ta’lim tizimiga ega. Ikkinchi o‘rinda Qo‘shma Shtatlar (72; 68,74), uchinchi o‘rinda Avstraliya (70,5; 67,52), Niderlandiya (70,3; 67,21) va Shvetsiya (70,1; 66,96) joylashgan. Fransiya(69,9; 66,3) oltinchi, Daniya (69,8; 62,54) yettinchi, Kanada (69,8; 61,01) sakkizinchi, Germaniya (69,5; 60,64) to‘qqizinchi, Shveysariya (68,3; 60,12) o‘ninchi o‘rinni egallagan[5]. Ta’lim ko‘rsatkichlari yuqori qiymatlarga ega bo‘lgan mamlakatlar raqobatbardoshlikning eng yuqori darajasini namoyish etadi. Bu ta’lim sohasini zamonaviy tendensiya va texnologiyalarni hisobga olgan holda rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Ta’lim tizimini takomillashtirish va ish joylarida ta’lim sifatini oshirish O‘zbekiston Respublikasi hududlarining raqobatbardoshligi va farovonligini yuksaltirishning muhim omillaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, Namangan viloyatida ta’lim sohasini tahlil qilish uning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha bir

qator istiqbolli tendensiyalarni aniqladi. Ushbu tendensiyalar ta'lim sifati va uning hududiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini yanada kuchaytirish imkonini beradi. Buning uchun quyidagi asosiy muammolarni yechish zaruriyati mavjud:

- Oliy ta'lim va mehnat ehtiyojlari o'rtasida zaif bog'liqlik milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'rtasidagi muammolarni keltirib chiqaradi. Viloyatda bilim va ko'nikmalarga talab hamda taklif o'rtasidagi nomuvofiqlik mehnat bozorida ma'lum kasblar bo'yicha mutaxassislarining yetishmasligi va boshqalarning nisbatan ko'pligi bilan bog'liq. Buni, bir tomondan, to'g'ri malakali mutaxassislarni ishga olishda ish beruvchilar duch kelayotgan qiyinchiliklar, ikkinchi tomondan, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari ish qidirayotgani ham ko'rsatadi. Bunday holatlar mamlakatda tarkibiy inqirozga, mashinasozlik va sanoatning qulashi hamda ko'plab korxonalarining raqobatbardoshligini cheklovchi omillar shakllanishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, Namanganda ma'lum kasblarning yo'qolib borish tendensiyalari kuzatilmoqda. Bular to'liq raqobatbardosh mehnat bozorining yo'qligi, shuningdek, aniq mehnat sharoitlari va malaka talablari tufayli past ish haqi bilan tavsiflangan sohalardir. Yoshlarda bu sohalarda ishlashga ishtiyoqini oshirish zaruriyati mavjud. Shu sababli, Namangan viloyatida kadrlarni qayta tayyorlash va ta'lim muassasalarini eng yangi texnologik jarayonlarni joriy etish hamda ularga xizmat ko'rsatishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirish asosiy muammolardan biridir.

- Davlat tashkilotlarning sa'y-harakatlari Namangan viloyatining maktab yoshidagi barcha fuqarolarini umumiy o'rta ta'lim bilan maksimal darajada qamrab olishga, ularning umumiy o'rta ta'limga teng kirishini, sifatli ta'limning uzluksizligini (deyarli 100%) ta'minlashga qaratilganligi kuzatilmoqda.

- Barcha akkreditatsiya darajasidagi universitetlarda talabalar umumiy sonining o'sish tendensiyasi mavjud. Ushbu tendensiyani sekinlashtiruvchi sabablardan biri tashqi mustaqil test natijalariga ko'ra oliy o'quv yurtlariga qabul qilish joriy etilganligi va oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalarni belgilanganligi bo'lib, bu o'rta maktab bitiruvchilarining oliy o'quv yurtlarga kirish imkoniyatini cheklanishiga olib kelish holatlari mavjud. Bu borada, mamlakatida oliy o'quv yurtlari qamrovini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirilib, abituriyentlarga yanada keng imkoniyatlar yaratilmoqda.


- Dastlabki vaqtlarda oliy ta'lim muassasalarining mavjud tarmog'i O'zbekiston Respublikasi ehtiyojlaridan ancha past bo'lib, mutlaq va nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha butun dunyodan deyarli oldinda bo'lgan ko'plab ta'lim muassasalari tarmog'i orqali ta'lim sohasidagi boshqaruv, moliyaviy, moddiy va inson resurslarining taqsimlanishidan anchagina farq qilgan. Bu esa rivojlangan davlatlarga mamlakatning integratsiyalashuv jarayonlariga mos kelmaslik holatlari kuzatilgan.

Shunday qilib, aholisi soni va yoshi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bilan dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat oliy o'quv yurtlari sonini taqqoslaydigan bo'lsak, xususan, Buyuk Britaniyada(68,3 mln.) — 98, Fransiyada (68,4 mln.) — 78, Yaponiyada (128,0 mln.)- 86, Italiyada(58,9 mln.) — 65 tani tashkil etadi. O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2024-yil holatiga ko'ra 37,1 mln. ekanini nazarda

tutadigan bo‘lsak, bizda davlat oliy o‘quv yurtlari soni 2024-yil holatiga 129 taga teng bo‘lib, bu o‘z navbatida, jahon talablari darajasida ularni modernizatsiya qilish va davlat oliy ta’lim muassasalari sonini qisqartirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim soniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mln. aholi soniga nisbatan olganda o‘rtacha 3,5 taga to‘g‘ri kelib bu yuqorida keltirilgan rivojlangan davlatlardan (barchasini o‘rtachasi 1,01 taga) ancha yuqori. 2023-yilga kelib davlat oliy ta’lim muassasasi sonida o‘zgarish bo‘lib, bu yuqori malakali hamda xalqaro talablarga mos mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, o‘quv hamda ilmiy jarayonlarni xalqaro standartlarga asoslanib innovatsion shakl va usullar asosida tashkil etish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida bir qator oliy o‘quv yurtlarini birlashtirilishi bilan izohlanadi.

Kuzatilayotgan tadqiqot uchun belgilangan Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta’lim muassasalari soniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda ham ijobiy natijalarga erishilayotgani hamda Namangan viloyati iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, ishlab chiqarish, muhandislik, yengil sanoat sohalari uchun zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega oliy ma’lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, oliy ta’lim tashkilotlarining mavjud resurslaridan samarali foydalanish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida: Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Namangan muhandislik-qurilish instituti va Namangan to‘qimachilik sanoati instituti negizida Namangan davlat texnika universiteti[6] tashkil etilishi ta’lim sohasida islohotlarni hududlarda ham amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.



1-rasm. Namangan viloyatida davlat va nodavlat oliy ta’lim tizimining tendensiyalari¹

Namangan viloyatida davlat va nodavlat oliy ta’lim tizimining tendensiyalari bo‘yicha berilgan 1-rasmga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2024-yilga kelib viloyatda Xalqaro standartlarga javob beradigan ya’ni, davlat oliygohlari sonini kamayishi hamda xususiy oliy ta’lim muassasalari sonini oshishi ta’minlandi. Endigi maqsad

¹ Muallif ishlanmasi

ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini uyg'unlashtirish orqali ishlab chiqarish, sanoat korxonalarini va qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun eng ilg'or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim.

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, universitetlarning ko'pligi global darajada ta'limning raqobatbardoshligini yaratmaydi. Buni xalqaro universitetlar reytingi ma'lumotlari ham tasdiqlaydi, ular mamlakatlarda ta'lim rivoji haqida ma'lumot beradi. Ushbu reytingda O'zbekiston oliy o'quv yurtlari juda past o'rinlarni egallaydi yoki ro'yxatlarda umuman yo'q.

Buyuk Britaniyaning nufuzli QS Quacquarelli Symonds xalqaro reyting agentligi dunyodagi eng yaxshi universitetlar reytingi – QS World University Rankings-2025 natijalariga ko'ra, birinchi marta O'zbekistonning birvarakayiga ikki oliy ta'lim muassasasi – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti 547-o'rin hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti 781–790-o'rin bilan munosib joy egalladi.

2030-yilgacha oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini ilg'or universitetlarga aylantirish va ulardagi ta'lim darajasini dunyoning 500 ta eng yaxshi universitetlari qatoriga qo'shish rejalashtirilgan.

5) Ta'lim sohasi xodimlarining ayniqsa, o'rta maktab o'qituvchilari mehnatiga haq to'lash darajasini pastligi. Natijada oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga yetuk yoshlarni kirib kelishiga to'sqinlik qilmoqda bu esa o'qituvchilarning to'liq bo'lmagan ish vaqti bilan bandligini keng tarqalishi bilan izohlanmoqda. O'quv yukining yetarli emasligi bilan o'qituvchilar ko'pincha fanlarning maksimal sonini o'rgatadilar, bu shubhasiz mutaxassislarni tayyorlash sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Taqqoslash uchun: AQSHda maktab o'qituvchilarining o'rtacha maoshi oyiga taxminan 5400 dollarni tashkil etadi (bu Rossiya Federatsiyasi Markaziy bankining oktyabr oyining boshidagi kursi bo'yicha 530 ming rubldan ortiq), Yaponiyada — 3000 (295 ming rubl), Tojikistonda esa — taxminan 100 dollar (10 ming rubldan kam)[8]. O'zbekistonda esa o'qituvchilarning o'rtacha ish haqi 3,4 million so'mni tashkil etadi, ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 13,3 foizga ko'paygan[9].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oliy o'quv yurtlarimizning salmoqli qismi uzoq muddatli kadrlar siyosatiga ega bo'lmasa, uni shakllantirgan bir xil oliy o'quv yurtlari o'z kadrlarini tarbiyalash orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga bo'lmaydi.

6) Ta'lim sohasini moliyalashtirishning yetarli darajada emasligi. Bilimlarni moddiylashtirish va tijoratlantirishdan oldingi aholini o'qitish jarayoni davlat va nodavlat (xususiy) tashkilotlar tomonidan ma'lum moliyaviy yordamni talab qiladi. Bunday qo'llab-quvvatlashning yetarli darajada emasligi va jamiyatning Xalqaro hamjamiyat rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojlari nuqtai nazaridan oqilona foydalanilmasligi ta'limning rivojlanishiga va shu bilan birga butun mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Aynan ta'lim tizimi va unga asoslangan bilimlarni ko'p talab qiluvchi tarmoqlar tufayli dunyo mamlakatlari yalpi milliy mahsulotining 40 foizini oladi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) mamlakatlari ta'limga yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 4,9%, Yevropa Ittifoqi (YeI-27) mamlakatlarida – 5,07%, Yevropa Ittifoqi-15da – 4,97% sarflaydi[10]. O'zbekistonda ta'limga sarflanadigan xarajatlar miqdori "Ta'lim to'g'risida" gi qonun bilan yalpi ichki mahsulotning 10 foizi miqdorida qonuniy ravishda belgilanadi. Avvalgi yillar kabi ijtimoiy xarajatlarning aksariyat qismini ta'limga xarajatlar (46%) tashkil etishi kutilmoqda. 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining byudjeti daromadlarining 25,9%i ya'ni 65444,1 mlrd. so'm ajratilishi rejalashtirilgan[1] bo'lib, 2024-yilda kutilayotgan xarajatlarga nisbatan 8,5 trln. so'mga ko'proqni tashkil etadi.

YAIMning kichik hajmi tufayli O'zbekiston Respublikasi nafaqat mutlaq moliyalashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha, balki o'quvchi/talabaga to'g'ri keladigan ta'lim xarajatlari bo'yicha ham boshqa rivojlangan mamlakatlardan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Ta'kidlash joizki, oliy ta'limda byudjet mablag'larini taqsimlash samaradorligi shubhaliligicha qolmoqda. Byudjetdan ta'limga ajratilayotgan mablag'larning asosiy qismi ish haqi va kommunal to'lovlar, oziq-ovqat, ma'muriy xizmatlar, jihozlar va kiyim-kechaklar, shuningdek, darsliklar va kanselyariya tovarlariga sarflanadi. Moddiy-texnika bazasini yaxshilash va innovatsiyalarga sarmoya kiritish qoldiq tamoyili asosida amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'kidlash joizki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida (AQSH, Angliya, Kanada, Fransiya) ta'lim tuzilmasida uning eng yuqori darajasiga, ya'ni ilm-fan rivoji va yangi bilimlarni yaratish uchun zarur kadrlar tayyorlashga ustuvor ahamiyat beriladi. Hozirgi kun talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, oliy ta'lim tizimi bilan maktab va maktabgacha ta'limga ham ta'limga ustunlik berilishi lozim bo'lib, bu mutlaq ma'noda ta'limga sarflanadigan mablag'lar o'sishda davom etayotganligi bilan ularni to'g'ri taqsimlash kerakligini ham talab etadi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim xarajatlarning o'sishi butun O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining o'sish (yoki pasayish) sur'atlariga mutanosibdir.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi ham yuqori darajada rivojlangan intellektual salohiyatga ega, u innovatsion muammolarni samarali hal qilishga qodir, ammo bilimlarni noto'g'ri ishlatish va yaratish muammosi mavjud. Iqtisodiyot tarmoqlarini texnologik rivojlantirish talablariga moslashtirilgan, yuqori darajadagi nazariy tayyorgarlik va kasbiy malakaga ega, ko'p funksiyali ko'nikmalarga ega, o'zini-o'zi tashkil etish, kasbiy faoliyatda o'zini-o'zi amalga oshirishga qodir bo'lgan malakali ishchilarni sifatli tayyorlash, ishlab chiqarish vazifalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlarini belgilovchi, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta'minlaydigan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkin emas. Bu inson kapitalining intellektual tarkibiy qismini o'stirish, raqobatbardosh shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratish maqsadida ta'lim tizimini zudlik bilan takomillashtirish zarurligini

yana bir bor tasdiqlaydi. Natijada, O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida yangi bilim va innovatsiyalarni ishlab chiqaruvchi mamlakat sifatida shakllanadi, bu esa uni xorijiy g‘oyalar, texnologiyalar, tovarlar va xizmatlar iste‘molchisidan farqli ravishda yetakchi o‘ringa olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24- dekabr O‘RQ-1011-son “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti” to‘g‘risida Qonuni, <https://lex.uz/docs/7277618>
2. Tashmatov Sh., Xasanxonova N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. T.: IQTISODIYOT DUNYOSI”, 2020.
3. Rodrigues–Pose A. Convergence or divergence? Types of regional responses to socio–economic change in Western Europe. Tijdschrift voor Economische en Sociale Geografie, 1999. Vol. 90: pp. 363–378.
4. Seeing Simulation with SynteSim [Electronic resource]. – Access mode : <http://www.vensim.com/index.html>.
5. CEOWORLD magazine-Latest-Education and Career-Countries with the best performing education systems, 2024. <https://ceoworld.biz/2024/04/02/countries-with-the-best-performing-education-systems-2024/>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-yanvar PQ-23-son “Namangan davlat texnika universitetini tashkil etish to‘g‘risida” Qarori,
7. <https://lex.uz/docs/7339049>
8. Эшмуродов, А. Олий таълим ислохотлари: сон ва сифат кўрсаткичлари [Матн] : методик қўлланма / А. Эшмуродов, М. Мамарасулов. – Тошкент: “Sano-Standart”, 2023. – 32 б.
9. Сколько учителя зарабатывают в разных странах мира. <https://skillbox.ru/media/education/gde-uchitelyam-zhit-i-rabotat-khorosho-obzor-usloviy-v-raznykh-stranakh>
10. Ўзбекистондаги олий ва биринчи малака тоифасига эга ўқитувчиларнинг маошини сентябрдан ошириш таклиф этилди. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/06/19/teachers/>
11. Education financing. <https://www.oecd.org/en/topics/education-financing.html>
12. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. Tashkent" economics-finance"—2013.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**